XALQ DEPUTATLARI BO‘STONLIQ TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 13 - fevral VI-78-15-10-136-K/23 Bo‘stonliq tuman hokimligi

Bo‘stonliq tumani mahalliy budjetining 2023-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari taqsimoti hamda tuman hokimligining zaxira mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risida

Bo‘stonliq tumani mahalliy budjetining 2023-yil 1-yanvar holatiga **2875** (ikki milliard sakkiz yuz yetmish besh) **mln. so‘m** miqdordagi mablag‘lar shakllangan.

Bo‘stonliq tumani hokimligi Moliya bo‘limi tomonidan ushbu shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar bo‘yicha takliflar taqdim etildi.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-128-son Qaroriga asosan, Bo‘stonliq tumani hokimligi Moliya bo‘limining 2023-yil 1-fevraldagi 01-20-224/27-01-35/27-sonli murojaatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 8^1-moddasiga muvofiq, xalq deputatlari Bo‘stonliq tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Bo‘stonliq tumani hokimligi moliya bo‘limi mudiri E.Turobovning 2023-yil 1-fevraldagi 01-20-224/27-01-35/27-sonli murojaati va tuman mahalliy budjetining 2023-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari taqsimoti to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bo‘stonliq tumani mahalliy budjetining 2023-yil 1-yanvar holatiga

shakllangan erkin qoldiq mablag‘larining taqsimoti bo‘yicha takliflar ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Davlat xavfsizlik xizmati Toshkent viloyati boshqarmasining 2021-yil 24-noyabrdagi 51/26/3111-sonli murojaatiga asosan, 2023-yil tuman hokimligining zaxira mablag‘lari hisobidan tuman hududidagi Davlat xavfsizlik xizmati hisobida bo‘lgan 3 ta xizmat uylarini ta’mirlashda vujudga kelgan qarzdorlikni qoplab berish uchun 270,0 (ikki yuz yetmish) mln.so‘m “Mahalla” hayriya jamoat fondi hisob raqamiga hamda tuman hokimligining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun 206,0 (bir yuz ellik olti) mln. so‘m mablag‘ tuman hokimligiga yo‘naltirilsin.

4.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Irisbekov, tuman hokimligining moliya bo‘limi mudiri E.Turobov bir hafta muddatda mahalliy budjetining 2023-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini maqsadli va manzilli ajratilishini nazoratga olsinlar.

5.Tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (Sh.Ziyaboyev) ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda o‘tkazilishini ta’minlasin.

6.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (E.Yuldashboyev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **J.Axmedov**

Xalq deputatlari Bo‘stonliq tuman
Kengashining
2023 yil 13 fevraldagi
VI-78-15-10-136-K/23-son qaroriga
1-ilova

2023-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larining taqsimoti bo‘yicha TAKLIFLAR

T/r.	**Mablag‘ ajratish maqsadi**	**Asos**	**Ajratiladigan mablag‘ miqdori** *(so‘m)*
1.	Tuman hokimligi va O‘zbekiston Respublikasi Xalq demokratik partiyasi o‘rtasida imzolangan shartnomaga asosan vujudga kelgan qarzdorlikni qoplash.	Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining 2022-yil 25-oktyabrdagi 4-1102-2202/3163-sonli hal qiluv qarori.	Tuman hokimligiga – **47,180 mln.**
2.	Budjet jarayonida fuqarolarni faol ishtirokini ta’minlash maqsadida Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga erkin qoldiq mablag‘larining 30,0 foiz miqdorini yo‘naltirish.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-sonli Qarorining 1-bandi hamda Moliya vazirligining 2021-yil 16-apreldagi 06/03-32/883-sonli ko‘rsatma xati.	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga – **865,0 mln.**
3.	Tumanda faoliyat yuritayotgan nogironlik jamiyatlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida, jumladan, O‘zbekiston Ko‘zi ojiz va karlar jamiyati Bo‘stonliq tuman bo‘linmasiga hamda Nogironlar jamiyati Bo‘stonliq tman bo‘limiga subsidiya sifatida mablag‘ ajratish.	O‘zbekiston Nogironligi bo‘lgan shaxslar ishlari bo‘yicha idoralararo Kengashi raisining 2022-yil 7-martdagi 25-01-07/331-sonli xati va viloyat hokimi o‘rinbosari Z.Hidoyatov taklifi, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2022-yil 26-oktyabrdagi VI-61-143-10-0-K/22-sonli Qarori hamda Toshkent viloyati hokimligining 2022-yil 29-martdagi K-736-sonli xati.	Ko‘zi ojiz va karlar jamiyatiga – **70,0 mln.** Nogironlar jamiyatiga – **30,0 mln.**
4.	Tumanda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo‘llab quvvatlash maqsadida “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” jamg‘armalariga erkin qoldiq mablag‘larining 45,0 foiz miqdorini yo‘naltirish.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-son, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-sentyabrdagi 585-sonli hamda 2022-yil 7-iyundagi 312-sonli qarorlariga asosan:	“Temir daftar” jamg‘armasiga – **431,0 mln.** “Ayollar daftari” jamg‘armasiga – **431,0 mln.** “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga – **431,0 mln.**
5.	Tuman hokimligi muassis bo‘lgan davriy nashrlarni faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, nashrlarni chop etish va obuna xarajatlarini qoplash.	O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri raisligida o‘tkazilgan 2020-yil 26-oktyabrdagi 01-07/1-2195-sonli yig‘ilish bayoni.	Tuman hokimligiga – **167,0 mln.**

6.	Tuman hokimligi, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, moliya bo‘limi, g‘aznachilik bo‘linmasi hamda iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi hodimlarini moddiy va ma’naviy qo‘llab quvvatlash maqsadida rag‘batlantirish.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari raisligida kengaytirilgan tarzda o`tkazilgan yig‘ilish bayoni, Administratsiya Rahbarining 2019-yil 24-yanvardagi 04/01-261-sonli ko‘rsatma xati.	Tuman hokimligiga – **300,0 mln.**
7.	Tumanda og‘ir hududlarining ichki ko‘chalarini shag‘allashtirish maqsadida yoqilg‘i harajatlarini qoplash. MFY lardagi Ichki ko`chalarga ko`cha chiroqlari olishga/	Tuman hokimligi taklifi.	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga – **52,0 mln.** **50,0 mln.**